

“KUNNI QARG‘AB BO‘LMAYDI” ERTAGINING PERSONAJLAR STRUKTURASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15634711>

X.Sharafiddinov

FarDU dotsenti v.b.

Annotatsiya

Maqolada qahramonlarning ertak syujeti davomida kechadigan voqealardagi ishtiroki, boshqa personajlar bilan munosabatga kirishishi, biror personajning taqdiri, hayotiga bo‘lgan ta’siri asosida shu personaj mavqeyi va faolligi belgilanadi, tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar

Ertak, syujet, faol personaj, nafaol personaj, madaniy qahramon.

Personajlarning ertak syujeti davomida kechadigan voqealardagi ishtiroki, boshqa personajlar bilan munosabatga kirishishi, biror personajning taqdiri, hayotiga bo‘lgan ta’siri asosida shu personaj mavqeyi va faolligi belgilanadi. Bu asosga ko‘ra “Kunni qarg‘ab bo‘lmaydi” ertagi personajlari ikkiga bo‘linadi. Faol mavqega ega bo‘lgan personajlar.

1. Nafaol personajlar.

Birinchi turga quyidagi personajlar kiradi:

Qoravoy, Bo‘riolgan, Obi odam, Olov ajdarhoning inisi, Olovajdarho, Kunbobo, To‘xtash bobo, Hasan savdogar, Usta Qodir; Chinor, Buloq, Tog‘, Ovoz-Yer.

Bu personajlar o‘zga qahramonlar bilan muloqotga kirishadilar va faqat o‘zlariga xos bo‘lgan funktsiya bajaradilar.

1. Qoravoy. Asosiy voqealar Qoravoy atrofida va u bilan bog‘liq holda kechadi. U Kun boboni so‘kadi. “Har kun yaraqlab chiqaveradi, bir kun chiqmasag‘ku, dam olardim”. Ertakda “so‘kib yuboribdi” deb berilsa ham, bu so‘kish emas. Shunchaki norozilik xolos. Qoravoydek mehnat kishisi so‘kinishdan uzoq bo‘ladi. Lekin shu gina “so‘kish” uchun qurg‘oqchilik boshlanib, turli fojialar kelib chiqadi.

2. Bo‘riolgan. Odamlarning qarashlaridagi o‘zgarishlar, faravon, ayniqsa, erkin va xotirjam hayotning - oldingi to‘kin va osoyishta hayotning qaytishi shu personaj harakatlari, mardligi va jasorati tufayli yuz beradi. Bo‘riolganning faolligi, ertakda tutgan mavqei uning Obi odam bilan, ya’ni ma’budlar vakili

bilan bo'lgan kurashida yengib chiqqanligi bilan ko'rsatiladi. Bo'riolgan jasoratning, mardlik va adolatning, hurriyat va erkning timsoliga aylanadi.

3. Obi odam. Odamlar bilan Kun bobo orasidagi vositachi bo'lgan personaj. Shu qahramon orqali odam qurbonligi ko'rsatiladi, unga bo'lgan e'tiqodning tugashi bilan odam qurbonligi an'anasi ham yemiriladi, shu e'tiqodning yemirilishiga ayni shu personaj orqali ishorat etiladi. Tog'ning maslahati bilan Qoravoy unga murojaat qilganida, Obi odam "mayli qo'limdan kelgancha yordamimni ayamayman. Lekin shartim bor. Har oyda bir bola – yo qiz yo o'g'il olib kelib, qurbonlik qilasan", - deydi. Obi odam ayyor, xiyलगar, avray biladigan va sehru jodu bilan yashaydigan suv odami - ma'budlar vakili bo'lgani uchun bola qurbonligiga keskin qarshilik qilgan Qoravoyga deydi: "Men qurbonlikni hozir ber demayman" deydi.

Obi odamning faolligi Bo'riolgan bilan kurashi orqali tasvirlanadi.

4. Olov ajdarhoning inisi. Ertakning eng katta mavqega ega bo'lgan qahramoni - Bo'riolgan bilan to'qnash keladi. U bilan olishib mag'lub bo'lgach, o'z xizmati va maslahatlari bilan yordam beradi. Uni hech bir jonzot chiqa olmagan va chiqa olmaydigan Yumaloq ota tog'iga olib chiqadi. Bo'riolgan o'z otini cho'qqiga chiqa oladi, deganda, "Yo'q, chiqa olmaydi, otingni shu yerda qoldirasan» deydi. "Sen meni minasan" deb, ko'z ochib yumguncha cho'qqiga olib chiqadi. Yana Quyosh bobo va Olov ajdarho bilan uchrashuv chog'ida o'zni qanday tutish kerakligi bo'yicha maslahatlar beradi: "Yaxshilab gapimga quloq sol. Quyosh bobo yaqinlashib kelib, shu yerda orqalariga nazar tashlab, birpas turadilar. Shunda undagi og'am Olov ajdarho bizga yaqinroq kelib, hol-ahvol so'raydi. ...avval Kun bobo bilan salomlashasan. Maqsadingni aytasan, keyin Olov ajdarho seni gapga tutadi. hech cho'chima, aksincha, do'q qil. Og'am do'q-po'pisani yoqtiradi. "Do'q-po'pisa mardlikning bir alomati", deydilar doimo. Gapimni angladingmi?

5. Olov ajdarho. Bo'riolganning haqiqatan ham madaniy qahramon ekanligini isbotlash funksiyasini bajaradi – Bo'riolgan madaniy qahramon sifatida u sochgan olovda kuymaydi.

Olov ajdarho:

– Nima deb valdirayapsan, ey odamzod! Bu yerga nima maqsadda kelding? Davlatgami yo or-nomusgami??.. Bo'riolgan uning inisi o'rgatgan gaplarini aytibdi-da:

– Ey Olov ajdar, bordi-yu kuching oshib-toshib ketgan bo'lsa, bu yoqqa tush, olishamiz... Ajdarho uni sinamoqchi bo'lib olov purkabdi... Ajdarho oxirgi olov purkaganda, tog'-tosh eribdi, barcha jonzot xushidan ketibdi. Bo'riolgan

kuyib kul bo'lay desa ham, tishini tishiga qo'yib chidabdi. Birdan olov ajdarho Bo'riolganing boshidan zar sochibdi-da:

- Ey odamzod, xazinamdan keragichasini ol. Boz ustiga inimga ayt, Yasar podshosining qizini ham bersin...

6. Kun bobo. Ertak mazmuni bo'yicha u oliy yaratuvchi. Qadim turkiy qarashlarga muvofiq Quyosh xudosi. Uning tabiatiga xos xususiyatlar: shafqatlilik, shafqatsizlik. Bo'riolgan undan rahm-shafqat so'raganida, "ayt-chi, nurimni berib, dov-daraxtlaru giyohlarni undirganim, iliq taftim, xoh odamzod, xoh jonzotga hayot ato qilganim uchun meni qarg'ash kerakmi? Borib o'sha noshukurlik qilib, meni koyiganlarni jazola, - keyin Kun bobo o'ylanib turib: - Ha mayli, shundan-shunga mashaqqat tortib kelibsan, men kechirdim. Aytganing bo'ladi!" deydi.

7. To'xtash bobo. Og'ir bosiq, o'zini to'xtatib olgan yurtboshi, u ommaga ta'sir o'tkaza oladi. Omma Qoravoyni jazolash harakatini boshlaganda, uni qutqarib qoladi. "Unga tegmanglar. O'zlaring ko'rib turibsanlar, Kun boboning qahri qishlog'imizni ham xarob etdi-ku, qo'y-echkilar qirildi, yer qovjiradi, hovuzdagi suvlar qaynadi. Qoravoyning aytganini qilib, qani, Obi odamga qurbonlik beraylik-chi, zora u Kun boboni qahridan tushirsa. Yana yerlar yashnab, qo'y-echkilar o'tlashsa. Odamlar ham qiynalmay, yaxshi yashashsa" deydi. Lekin odam qurbonligiga qarshi chiqa olmaydi, odamlarni o'z jamoasini bunday qarashlarga qarshi qo'ya olmaydi. U oldindan urf bo'lib kelgan odam qurbonligi qarashlari ta'sirida shakllangan.

8. Hasan savdogar, Usta Qodir. Bularning faolligi shundaki, ular odam qurbonligiga qarshi chiqadilar. "Bolamni bermayman!" - deb Hasan savdogar ham, xotini ham dod-faryod ko'tarishadi. Usta Qodir ham "Qizimni bermayman" deb turib oladi. Bu mavjud bo'lib kelgan qarashlarga nisbatan isyon edi. Bu odamlar qon qoniga singib ketgan, tafakkuriga muhrlanib qolgan qarashlarga qarshi qo'yilgan insonning, jamiyatning dastlabki qarashlari edi.

9. Chinor, Buloq, Tog', Ovoz-Yer kabilar shaxslashtirilgan personajlar bo'lib, ular o'zlariga xos funksiyalarni bajaradi: Chinor, Buloq faqat bir vazifani bajaradi - Kun boboning qudratini ko'rsatadi xolos. Tog' esa Qoravoyga daryoga borishni ham maslahat beradi. Bu unga yuklangan qo'shimcha vazifa. Ovoz harakatni davom ettirishga ishorat etadi, harakat esa hayotdir.

Ertakdagi sanab o'tilgan, nomlari keltirilgan, personajlardan tashqari birorta boshqa personajlar bilan aloqaga kirishmagan yana bir qator personajlar bor. Bular: Qoravoyning xotini, qizi, Hasan savdogarning o'g'li To'xtar, Usta Qodirning qizi, Bo'riolganing otasi Eshbo'ri, Yasar podshosining qizi - malika. Bular faol personajlar holatlarini biror jihatdan to'ldirish uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзаев Т. Фолклор ва унинг асосий хусусиятлари. Тошкент: “Илмий мақолалар тўплами”, 2006.
2. Расулова З. “Сехрли узук” ва унинг ўзбек халқ эртакларидаги бадиий талқини. Тошкент: “Илмий мақолалар тўплами”.
3. Раҳмонов Б. Эртаққа хос формулавий тасвир ва жанрнинг ҳозирги аҳволи. Тошкент: “Илмий мақолалар тўплами”.
4. Sharafutdinova N. THE WORDS GOD AND BLUE (KO'K) ARE THEONYMS, THE WORDS GOD AND BLUE (KO' K) ARE THEONYMS, Vol-7-Issue Q2- 2022.
5. Sharafutdinov X. The Image of Time in the Picture of History. American Journal of Education and Evaluation Studies, 2025.
6. Sharafutdinova N. Mythology - ancient man's fiction. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 7 | Issue: 5 May 2021.
7. Х.Шарафиддинов, Н.Шарафиддинова. Некоторые рассуждения о лексеме “эл” и его семантической структуре. Билим ве эгитим: проблемлер, гўзумлер, везифелер. – Анталя, 2016.
8. Sharafutdinova N. Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar. FarDU ilmiy xabarlari. 2024. 3-son.